
Shahrimizda Ichki ishlar organlari xodimlari uchun ham ko'p qavatli uy quriladi

M.G'olib ko'chasi 1-uyda joylashgan Farg'ona shahar IIO FMBning 2500 metr kvadrat hududiga soha xodimlari uchun 9 qavatli uy-joy qurilishi belgilangan.

Bugun shahar hokimi Vosiljon Nazarov, shahar IIO FMB boshlig'i Anvarjon Mirzaev va mas'ullar bunyod etilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli uy-joyning loyihasi bilan yaqindan tanishdilar. Ko'p qavatli uyning atrofida bolalar maydonchasi, dam olish maskani hamda avtoturargoh qurilishi ham belgilangan.

Qurilish ishlari boshlanishidan avval yon hududlardagi ko'p qavatli uylarda yashovchi fuqarolar bilan ham suhbatlashildi. Aholi vakillari tomonidan kirish yo'lini qurish bo'yicha bildirilgan takliflar o'rganildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-23 09:19:58